

# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

1/2023

**Bosh muharrir:**

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(bosh muharrir o'rinbosari)

**Tahrir hay'ati:**

Djuraev Risbay Xaydarovich  
Abdullaeva Shaxzoda  
Bulatov Saidaxbor  
Ibrayimov Xolboy Ibragimovich  
Kamilova Nodira  
Karlybaeva Guljaxan  
Quronov Maxammadjon  
Mamadaliev Abdumajid  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Murtazaeva Maxfuza  
Safarova Roxat  
Tojiboeva Xilolaxon  
Xakimov Muxabbat  
Xodjaev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.



# PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND  
METHODICAL JOURNAL

1/2023

---

**CHIEF EDITOR**

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(deputy editor-in-chief)

**EDITORIAL BOARD:**

Djuraev Risbay Xaydarovich  
Abdullaeva Shaxzoda  
Bulatov Saidaxbor  
Ibrayimov Xolboy Ibragimovich  
Kamilova Nodira  
Karlybaeva Guljaxan  
Quronov Maxammadjon  
Mamadaliev Abdumajid  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Murtazaeva Maxfuza  
Safarova Roxat  
Tojiboeva Xilolaxon  
Xakimov Muxabbat  
Xodjaev Begzod

The founder: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

---

**BIOLOGIYANI O'QITISHDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING  
METODIK QIRRALARI VA NAZORAT QILISHDA TEST TOPSHIRIQLARINI O'RNI**

*Inogamova Dilfuza Rahmatullayevna, TDPU prof. v.b., PhD,  
Shigakova Lutsiya Anvarovna, TTA assistenti*

**Annotatsiya.** Maqolada «Biologiya»ni o'qitishda mustaqil ishlarni tashkil etishning metodik qirralari va talabalarning bilimlarini nazorat qilishda test topshiriqlarining muhim o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** *mustaqil ish metodlari, o'qitish metodikasi, o'quv vositalari, axborot resurslari, didaktik maqsad, mezon, intellektual qobiliyat, tafakkur, qiyinchilik darajasi, vaqt omili.*

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ  
РАБОТ И РОЛЬ ТЕСТОВЫХ ЗАДАНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ**

*Иногамова Дилфуза Рахматуллаевна, и.о. проф. ТГПУ, PhD,  
Шигакова Люция Анваровна, ассистент ТМА*

**Анотация.** В статье ведется речь о методических аспектах организации самостоятельной работы студентов и о важной роли тестовых заданий в процессе контроля знаний при обучении «Биологии».

**Ключевые слова:** *методы самостоятельной работы, методы обучения, учебные пособия, информационные ресурсы, дидактическая цель, критерии, интеллектуальные способности, мышление, уровень сложности, фактор времени.*

**METHODOLOGICAL FEATURES OF THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT  
WORK AND THE ROLE OF TEST QUESTIONS IN TEACHING BIOLOGY**

*Inogamova Dilfuza Rahmatullayevna, acting professor TSPU, PhD,  
Shigakova Lucia Anvarovna, assistant of the TMA*

**Abstract.** The article deals with the methodological aspects of the organization of independent work of students and the important role of test tasks in the control of students' knowledge when teaching the subject «Biology».

**Key words:** *methods of independent work, teaching methods, teaching aids, information resources, didactic goal, criteria, intellectual abilities, thinking, level of complexity, time factor.*

**Kirish.** Talabalarning mustaqil ishi o'qitish jarayonining ajralmas elementi hisoblanadi. P.I.Pidkassistiy fikricha, talabani o'quv jarayonida bilim olish bilan bog'liq bo'lgan har qanday mustaqil faoliyati – mustaqil ish hisoblanadi. Mustaqil ishsiz o'qitish va talabalarning mustaqil ishlar birligini ta'minlash mumkin emas. Mustaqil ishlarni o'qitish metodi, deb hisoblash mumkinmi – degan savolga ba'zan o'quv ishini tashkil qilish formalari, o'qitish turlari va o'qitishni amaliy metodlari qatoriga kiritishadi. Masalan: E.A.Sokolovning asarida agar mustaqil ish metodik vosita sifatida butun dars uchun mo'ljallangan va darsda ko'p vaqtni egallamagan bo'lsa, bunday mustaqil ishini o'qitish jarayonini tashkil etish shakllari sifatida kiritish zarurligi ta'kidlanadi [1].

**Asosiy qism.** Talabani ijodiy bilish faoliyatini aktivlashtirish muammosi ularning mustaqil ishini tashkil etish masalasi bilan chambarchas bog'liq. V.P.Esipov ta'rificha, talabalarning mustaqil ishi, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz ammo o'qituvchining

topshirig'iga binoan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishidir [2]. Shunday qilib, talabalarning o'quv topshiriqlarini o'qituvchining bevosita boshqaruvisiz bajarishi, mustaqil ishlash metodlarining eng xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ishlash talabalar tomonidan darsda yangi material matnini o'rganish, axborot resurslari bilan ishlab referatlar, ma'ruzalar tayyorlash va shu kabilar orqali amalga oshirilishi mumkin. Mustaqil ish metodlari o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlarining kichik qirrasiga kiritiladi [3]. Bu metodlarga darslik bilan ishlash, yozma ishlarni mustaqil bajarish, insho, hikoya va boshqa topshiriqlarni mustaqil bajarishlar kiradi. Mustaqil ishlar o'qitishdagi ta'lim va tarbiyani birgalikda amalga oshirishda katta yordam beradi. Reja asosida kiritilgan mustaqil ishlar talabalarga bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallashga, ularni chuqurlashtirishga, mustahkamlashga va takrorlashga yordam beradi. Ular, ayniqsa, amaliy o'quv ko'nikmalari va malakalarini yaxshiroq o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlash talabalarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda katta ahamiyatga egadir. Tarbiyaviy rejada ular shaxsning mustaqillik, bilim aktivligi, mas'uliyat, aktiv hayotiy pozitsiya tipidagi muhim hislatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Mustaqil ishlar tafakkur, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shaxsning irodasini chiniqtiradi. Kitob yordamida mustaqil ishlash metodidan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirishda, darslarda va darsdan tashqari darslik bilan muntazam ishlash, ayniqsa qimmatlidir. Ayrim mutaxassislarining fikricha, o'quv materialini tushuntirishda, talabalardan darslikni yopib qo'yishni talab qilmasdan, balki, aksincha, ulardan ta'riflarni diqqat bilan o'qishni, qiyinalishganida savollar berishni, paragrafdan asosiy mag'zni fikran ajratishni, darslikda berilgan rasm, sxema va jadvallar bilan ishlashni va shu kabilarni iltimos qilish kerak. Mustaqil ish metodi talabalarning uy vazifalarini bajarishda keng qo'llaniladi. Uy vazifalarini shoshma-shosharlik bilan bermay, balki ularni mufassal tushuntirish, tug'ilishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni ko'rsatish, ularning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berish, ularni bajarish ustidan nazoratni kuchaytirish singari elementar pedagogik talablarga e'tibor berish kerak. «Biologiya»ni o'qitishda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etishda mustaqil ishlar muhim o'rin tutadi. Mustaqil ishlar – bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni egallash maqsadida har xil darajadagi o'quv topshiriqlarni mustaqil bajarishga yo'llantirilgan, talabalarning o'quv faoliyatidir. Mustaqil ishlarni tashkil etishning muhim sharti uning didaktik maqsadi, talabalar bajarishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, o'rganiladigan bilim manbai aniq ko'rsatilishi kerak. Mustaqil ishlarning didaktik maqsadiga muvofiq, talabalar, o'quv topshiriqlarini bajarish orqali, ta'lim mazmunining ma'lum bir qismini mustaqil egallashlari lozim. Shunday qilib, talabalarning mustaqil ishlari talabalarning bilish faoliyatini tarkibiy qismi bo'lib, ular, mazkur faoliyatni tashkil etilishi, foydalaniladigan o'quv vositalari, mustaqillik darajasi, didaktik maqsadiga ko'ra tasniflanadi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, mazmuni, talabalarning tayyorgarlik darajasiga muvofiq holda mustaqil ishlarni o'z o'rnida va samarali tashkil etishi lozim. «Biologiya» fanidan talabalarning olgan bilimini nazorat qilishda, test savollaridan foydalanish, qisqa muddatda har bir talabaning qobiliyati, xotirasi va fikrlash tezligini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu talabalarga yakka holda yondashish, ya'ni ularning har biriga kasbga qiziqishini oshirishga imkoniyat beradi.

Test – atamasi inglizchadan olingan bo'lib, «tekshirish, tadqiq etish, sinab ko'rish»

degan ma'noni anglatadi. Test – bu qisqa, standart va odatda vaqt bilan chegaralangan sinovdir. Sinov natijasiga ko'ra, bajaruvchining ba'zi bir tavsifi, shuningdek, uning bilimi, ko'nikmasi va malakasi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Hozirda qo'llaniladigan testlar B.Nemerko iborasi bilan aytganda, «Ta'limning ma'lum qismi mazmuniga moslashtirilgan, ularni bajarish natijasi asosida talabalar tomonidan ana shu mazmun qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlashga imkon beradigan topshiriqlar majmuasidir» [4]. Test tanlash va uning strukturasi (savollar, tavsiyalar) o'qituvchini qaysi omillar qiziqtirishiga bog'liq bo'ladi. Testlar qo'llaniladigan o'qitish maqsadiga bog'liq ravishda ma'lum mezonlarga javob berishi kerak. Jumladan: Dalillar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bilish. Nazariy va amaliy muammolarni yechish. O'z-o'zini baholash. Bilimlarni yangi sharoitda mustaqil qo'llay olish.

Testlar qo'llanilayotganda, imkoni boricha, to'rtta umumiy mezonni inobatga olishga harakat qilish kerak. Testdagi topshiriqlar soni material hajmiga, ko'zda tutilayotgan tekshiruvning qanchalik oydinlashganiga va qancha vaqt ichida o'tkazishga mo'ljallanganligiga bog'liqdir. Test topshiriqlari qisqa muddatda talabalarning bilim darajasi, ko'nikma va malakalarini o'lchash yoki aniqlashga imkon bersagina, bu usul muvaffaqiyatli hisoblanadi. Ayni o'quv fani uchun qo'llanayotgan test yordamida faqat bilim darajasi aniqlansa, boshqa mezonlar inobatga olinmagan bo'lsa yoki xotiraniqina aniqlab, o'quv fanini qay darajada bilishini aniqlashga imkon bermasa, u muvaffaqiyatsiz tuzilgan hisoblanadi. Testning ikkinchi o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ichki kelishilganligi asosida uning unsur va topshiriqlari ayni predmetning nechog'lik o'zlashtirilganligini aniqlashga xizmat qilishi lozim. Hozirgi vaqtda, bu jarayonda, statistik va didaktik mashinalar keng joriy etilayotganligi munosabati bilan, javobi tanlanadigan test topshiriqlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Javobi tanlanadigan topshiriq uch qismdan iborat bo'ladi: yadro, to'g'ri javob va tarqoqlik. To'g'ri javob yadroni to'ldiradi, tarqoqlik esa, chala yoki noto'g'ri javob tarzida bo'ladi. Talaba chala yoki noto'g'ri javobni inkor etishi va to'g'risini tanlash uchun nazariy materialni juda yaxshi bilishi kerak. Test topshiriqlari o'z mazmuniga ko'ra har xil bo'lishi mumkin: predmetli (ayni fan (predmet) bo'yicha o'z bilimini tekshirish uchun), mantiqiy va psixologik. Fan bo'yicha ma'lum o'quv materiali asosida tuzilgan, standartlashtirilgan testlarni yutuqli testlar deb nomlash odat qilingan. Ular talabalarning bilimlari va malakalarini, ya'ni o'zlashtirish darajasini baholash uchun xizmat qiladi.

«Biologiya» fani mashg'ulotlarida qo'llaniladigan testlarni didaktik jihatdan

2 ta guruhga bo'lish mumkin: 1. Talabalarning nazariy bilimlarini aniqlash uchun xizmat qiluvchi testlar. 2. Talabalarning egallagan ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun xizmat qiluvchi testlar. O'qituvchi test sinovlarini qo'llaganda, har bir talabaning intellektual qobiliyatini hisobga olishi zarur. Talabalarning bilim darajalari turlicha bo'lganligi uchun qo'llaniladigan testlarning qiyinchilik darajalari quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq: 40% o'rtacha, 25% qiyin, 20% ancha qiyin, 15% juda qiyin. Demak, jami testlarning 40% o'rtacha o'qiydigan, 65% yaxshi o'qiydigan, 85% a'lochi va iqtidorli talabalar, hammasini esa, faqat iqtidorli talabalargina bajara oladigan bo'lishi lozim. Test sinovlarini qo'llaganda o'qituvchi vaqt omilini ham hisobga olishi talab qilinadi. Talaba test topshirig'ini qanchalik qisqa vaqt ichida bajara olsa, undagi bilim, ko'nikma va malakaning shakllanganlik darajasi shunchalik yuqori hisoblanadi. «Biologiya»da qo'llaniladigan testlar shunday tuzilishi lozimki, toki uni bajarish uchun ajratilgan vaqt yetarli bo'lsin. Har bir testning qiyinchilik darajasiga qarab, ularni bajarish

uchun turlicha vaqt berilishi kerak. Masalan: birinchi qiyinchilik darajasidagi testlar 10-15 soniya, ikkinchi qiyinchilik darajasidagi testlarga 25-30 soniya, uchinchi qiyinchilik darajasidagi testlarga 45-60 soniya, to'rtinchi – eng qiyin testlar tavsifiga ko'ra 1 daqiqa va undan bir oz ortiq vaqtda bajariladigan bo'lishi mumkin. Umuman olganda esa, o'rtacha har bir test uchun ajratiladigan vaqtga nisbatan berilgan testlarni bajarish uchun amalda sarf qilinishi lozim bo'lgan vaqt teng bo'lishi kerak. Aks holda test sinovidan olingan natija talabalarning bilimlarini to'liq aniqlash inkonini bermaydi.

**Xulosa.** Test sinovining yana bir muhim tomoni, topshiriqlarning ishonchlilik darajasi hisoblanadi [5]. Didaktik tadqiqotlarda test topshiriqlari soni kanchalik ko'p bo'lsa, natijaning ishonchliliigi shuncha yuqori bo'lishi aniqlangan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Соколова Е.А. Самостоятельные работы учащихся по биологии. - М.: Просвещение, 1984. - 125 с.
2. Пидкасистый П.И. Педагогика: Учебник. - М., 2006.
3. Бабанский Ю.К. Педагогика. - М.: Просвещение, 2004.
4. Фарберман Б. Методика разработки и применения педагогических тестов. - Т.: Oliy ta'lim muammolari instituti, 1995. - 95 б.
5. Иванов А.А. Пособие для подготовки к ЕГЭ и поступлению в вузы. - М.: МФТИ, 2003.

<b>Tursunova U.A.</b> Bo'lajak iqtisodchilarda kasbiy yo'naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirishsamaradorligi.....	374
<b>Hakimova D.A.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy til o'rgatishning yosh bilan bog'liq ko'nikmalari.....	378
<b>Hajikarimova G.T.</b> Kiyimlarni konstruksiyalash va modellashtirishning asosiy metodlari.....	381
<b>Shamsiddinova M.Ф.</b> Особенности изучения китайского языка в нелингвистических вузах.....	385
<b>Rajapov Sh.Z.</b> Maxsus maktab o'quvchilarining adaptiv jismoniy tarbiyasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.....	389
<b>Malikova X.I.</b> Surdopedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajribalar.....	393
<b>Isoqjonova D.M.</b> Ona tili darslarida kar o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari.....	398
<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oilaviy barqaror ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tasnifi va tahlili.....	403
<b>Karimova U.</b> Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlashning samarali texnologiyalari.....	407
<b>TABIYIY FANLAR TA'LIMI</b>	
<b>Karlibayeva G.Ye., Matjanov N.S.</b> Umumiy o'rta ta'limda fizika fanini o'qitishning ba'zi masalalari.....	412
<b>Mamatov D.N.</b> Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.....	416
<b>Mamarajabov M.E.</b> Pedagogik tadqiqot natajalarini tahlil qilish usullari.....	421
<b>Inogamova D.R., Shigakova L.A.</b> Biologiyani o'qitishda mustaqil ishlarni tashkil etishning metodik qirralari va nazorat qilishda test topshiriqlarini o'rni.....	425
<b>Tursunov S.Q.</b> Ta'lim jarayonida video materiallar yaratish va ulardan foydalanish.....	429
<b>Xaydarova M.</b> Talabalarining tibbiy madaniyatini bioenergetik bilimlar asosida rivojlantirish.....	434
<b>Abdulahobov D.A.</b> Matematika ta'limida ehtimollar nazariyasiga doir kasbiy mazmunli masalalardan foydalanib o'qitish.....	439
<b>Buranova Sh.U.</b> Qishloq xo'jaligi mashinalari fanini o'qitishda gorizontial va vertikal inegratsiyadan foydalanish.....	443
<b>SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI</b>	
<b>Abdurasilov S.F.</b> Pedagogik ta'limda nusxa ko'chirish fanini o'qitishni takomillashtirish.....	447
<b>Ibraximov S.U.</b> Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak sport murabbiylarning kasbiy pedagogik mahoratini oshirishda pedagogik strategiyalarning ahamiyati.....	453
<b>Rustamov L.X.</b> Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishda metodik dastur bilan ta'minlash.....	459
<b>Raximov V.Sh.</b> Oliy ta'lim talabalari o'rtasida sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishning ilmiy asoslari.....	463
<b>Mirzayev A.M.</b> Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish mexanizmlari.....	467
<b>Mansurov N.A., Normaxmatova G.Sh., Jabborova D.Z.</b> Zamonaviy tasviriy va amaliy san'atni o'qitish va uni idrok etishning metodik asoslari.....	472
<b>Ibragimova X.S.</b> Farobiy ta'limotida ritmik usullari.....	467
<b>Isakov Sh.M.</b> Oliy ta'lim muassasasi talabalarida belbog'li kurash mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlarining mavjud holati.....	469
<b>Gamzudinov R.G.</b> Badminton sportiga oid milliy va xorijiy tajribalar tahlili.....	484
<b>USTOZ</b>	
<b>Tashimov N.E.</b> Ilm-fan fidoyisi – zahmatkash Adilov Polat Adilovich 85 yoshda.....	488

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY  
NAMED AFTER NIZAMI

PEDAGOGICA

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 1

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ

ПЕДАГОГИКА

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 1

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

**Mas’ul kotib** – R.M.Medetova

**Muharrirlar** – D.A.Madjidova, X.M.Tojiboyeva

**Sahifalovchi** – S.Pirmatov

**Nashr ko’rsatkichlari:**

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2023-yil 26-fevral bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.

Adadi – 175 nusxa. 30 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100<sup>1/16</sup> “Roboto” garniturasida.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.